

Jiemuratova Zuxra Kuvanichbaevna

Qoraqalpogiston Respublikasi

Agro IT texnikumi

Annotatsiya. Ushbu tezisda internetning mamlakatimiz hududida kirib kelishi va rivojlanish tarixi, shuningdek axborot xavfsizligi kabi masalalarda qisqacha so'z yuritilgan bo'lib, axborot xavfsizligi va uning xururjlariga nisbatan izohlar keltirilgan.

Kalit so`zlar. Internet, globallashuv, axborot xuruji, qamrov, tarmoq, foydalanuvchilar

Annotation. The article briefly discusses the history of the introduction and development of the Internet in the territory of our country, as well as issues such as information security, and provides comments on information security and its attacks.

Keywords. Internet, globalization, information attack, coverage, network, users

KIRISH

XX asrning oxiri va asrimiz boshiga kelib hayotimizda "axborot asri", "axborotlashgan jamiyat", "axborot xuruji" kabi tushunchalar paydo bo'ldi. Bu esa bugungi kunda axborot tushunchasining ahamiyati oshganligidan, qamrovi kengayganligidan, maqsad-muddaosi o'zgarayotganligidan darak beradi. Axborot endi biror jarayon, voqelik yoki hodisa haqida xabar berish ma'nosidan chetga chiqib, insonlar ongi va ruhiga ta'sir etishning, jamiyatda mayjud qonunqoidalarni va butun dunyo e'tirof etgan umuminsoniy qadriyatlar va tushunchalarni ma'lum maqsad atrofida birlashgan ayrim guruh va jamoalarning manfaatlariga xizmat qiluvchi o'ziga xos yangi talqinlarini yuzaga chiqarishning, siyosiy, iqtisodiy,

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "

2022 Warsaw, (Poland)

harbiy, diniy va boshqa bir qancha qarashlarning targ‘ibotchisiga aylanib bormoqdaki, buning natijasida, insoniyat taraqqiyotining ayni pallasida axborotning omma ongiga ta’siri va uning salbiy oqibatlari jamiyatning jiddiy muammolaridan biriga aylanib ulgurdi.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichiga kelib, dunyo axborot bozorida munosib o‘rin egallashga erishish uchun moddiy ko‘rinish va shaklga ega bo‘lmagan, faqat aql bilan ko‘rish va tafakkur bilan anglash mumkin bo‘lgan jiddiy kurash avj olmoqda. Soha mutaxassislarining fikricha, axborot qurollari tushunchasi ostida biror xalq, millat mentaliteti, madaniyati, ma’naviyati, dini, davlatning informatsion va harbiy tizimiga salbiy ta’sir o‘tkazadigan maxsus dezinformatsion texnologik vositalarning muayyan tizimi yotadi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Bugun insoniyat g‘oyaviy urushlar, ma’naviy ziddiyatlar, zo‘ravon g‘oyalarning dunyoni qayta taqsimlashga qaratilgan o‘yinlari avj olgan shiddatli zamonda yashayapti. Hozir buzg‘unchilik, axloqsizlik va ma’naviy inqirozlar har qachongidan ham xatarli tus olmoqda. Yoshlarimiz bunday sharoitlarda hamisha hushyor va ogoh bo‘lishi, fitna va g‘arazli maqsadlar, manfaatdor kuchlar turganini bir lahza ham unutmasdan, yoshligidanoq sog‘lom tafakkurni shakllantirish lozim¹

ASOSIY QISM

Globallashuv davrida global internet tarmog‘ining takomillashgan axborot almashuv vositasi sifatidagi rasmiy va norasmiy kommunikativ axborot tizimidagi o‘rni ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamoatchilik vakillarining kiber internet tarmog‘idagi rasmiy saytlarda joylashtirilgan ma’lumotlardan o‘z faoliyatida samarali foydalanishi natijasida inson o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy faoliyati, ma’naviy, shaxsiy talablarini qondirishi uchun chegaralanmagan imkoniyat, auditoriyaga ega bo‘ldi. Ta’kidlash lozimki, yangi taraqqiyot bosqichi davrida

¹ Mirzièev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O‘zbekistan”, 2017. 488-b

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "

2022 Warsaw, (Poland)

global kompyuter tarmog‘ining jadal rivojlanishi, uning auditoriyasi tobora kengayish jarayoni kuzatilmoqda. 1995 yilda jahonda internetdan foydalanuvchilar soni 10 million bo‘lgan bo‘lsa, 2005 yilga kelib ular soni 1 mlrd.dan oshib ketgan. Bunday jadal o‘sish natijasida global internet inson faoliyatida universal ijtimoiy kommunikatsiya rolini bajarmoqda.² Global internet tarmog‘idan foydalanuvchilarning soni 2010 yilda 1 mlrd. 966 mln. kishini tashkil qildi.³ Bugunga kelib, internet 4,5 mlrd. kishining shaxslararo munosabatlardagi innovatsion axborot vositasi bo‘lib, turli ijtimoiy guruhlar, jamoatchilik vakillari munosabatlari, o‘zaro aloqasida muhim kommunikativ vosita vazifasini bajarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida internet rivoji bevosita mamlakat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘lanadi. U o‘zida zamonaviy davlat va aholi turmush tarziga xos barcha bosqichlarni aks ettiradi. O‘zbekistonda Internet rivojini quyidagi asosiy davrlarga bo‘lish mumkin: 1990-yillar boshi. UUCP ma’lumotlar uzatish tizimida elektron pochta orqali ma’lumot almashish imkonini paydo bo‘ldi. Foydalanuvchilar analog modemlar yordamida Moskvaga yoki boshqa shaharlararo qo‘ng‘iroqni amalga oshira boshladilar. Ma’lumotlar uzatish tezligi 1200-2400 bod (bit/s)ni tashkil qilgan. 1992-1995 yillarda UUCP mahalliy provayderi faoliyatini boshlagan. U tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar tezligi 9600-14400 bod (bit/s)ni tashkil qilgan. Shundan so‘ng BCC (Biznes Aloqalar Markazi), CCC va PERDCA (Silk.org) provayderlari tashkil etilgan. SONET elektron tijorat tarmoqlariga ulanish boshlangan⁴.

2010-2011 yillar. Foydalanuvchilar soni 7,378 mln.ga yoki aholi miqdoriga nisbatan 24 % ga tedi. Bundan mobil Internetdan foydalanuvchilar 4,119 mln.ni

² Зборовский Г.Е., Шуклина Е.А. Образование как ресурс информационного общества// Социол. исслед. 2005. № 7. -Б 107-108.

³ URL: <http://perevod.yandex.iWeiVids=74327&url=ht1p://wvm.internetworldstats.com/stats.htm> (дата обращения: 24.01.2011).

⁴ Akhmedov, B. A. (2021). Development of network shell for organization of processes of safe communication of data in pedagogical institutions. Scientific progress, 1(3), 113-117.

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "

2022 Warsaw, (Poland)

tashkil qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ko‘pchilik Internetdan foydalanishda mobil aloqani ma’qul ko‘radi. 2010 yilda O‘zbekistonda Internet foydalanuvchilari soni 3,2 millionga oshib, 2002 yil bilan solishtirganda o‘sish 23,8 %ni tashkil qiladi. O‘zbekistonning barcha hududlarida Internet foydalanuvchilari soni muntazam oshib bormoqda va mamlakat aholisining 24 %i xalqaro tarmoqdan foydalanadi. 2010 yil so‘ngida Internetdan foydalanuvchi davlat organlari soni 7643 taga yetdi⁵.

Global kompyuter tizimidagi norasmiy saytlarda salbiy mazmundagi axborotlar hajmining ko‘payishi, axborotlarni nazorat qilish imkonining yo‘qligi, internetga nisbatan axborot xavfsizligiga qarshi manba sifatidagi ijtimoiy fikrni shakllantiradi. Ta’kidlash lozimki, internet tarmog‘ida turfa axborotlar joylashtirilishi, jumladan, ma’naviy qashshoqlik, axloqiy tubanlikni targ‘ib qiladigan, pornografiya, «ommaviy madaniyat» kabi salbiy materiallar ham mavjud⁶

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib shuni alohida takidlash joizki, mamlakatimiz yuqori suratdagi jadallik bilan rivojlangan davlatlar qatoriga kirmoqda va ushbu jarayonda internet tarmog‘I hartomonlama muhim ahamiyatga ega. Internet tezligi va xizmatlarining mamlakatimiz turli sohalarida tez va sifatlari taminlanishi rivojlanish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, ammo ushbu tarmoqning zararli jihatlarini hisobga olgan holda yoshlarni axborot xuruji va internetga qaramlik kabi illatlardan xalos etish jarayonida mamlakat axborot xavfsilik tizimlari sergav bo’lmog‘I darkor.

ADABIYOTLAR.

1. Akhmedov, B. A., Kuchkarov, Sh. F., (2020). Cluster methods of learning english using information technology. Scientific Progress, 1(2), 40-43. 7.

⁵ Akhmedov, B. A., Kuchkarov, Sh. F., (2020). Cluster methods of learning english using information technology. Scientific Progress, 1(2), 40-43. 7

⁶ Зборовский Г.Е., Шуклина Е.А. Образование как ресурс информационного общества // Социол. исслед. 2005. № 7. Б. 118-119

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC

PROGRESS "

2022 Warsaw, (Poland)

2. Akhmedov, B. A. (2021). Development of network shell for organization of processes of safe communication of data in pedagogical institutions. *Scientific progress*, 1(3), 113-117.
 3. Зборовский Г.Е., Шуклина Е.А. Образование как ресурс информационного общества// Социол. исслед. 2005. № 7. -Б 107-108.
 4. URL:<http://perevod.yandex.iWeiVids=74327&url=ht1p://wvm.internetworldstats.com/stats.htm> (дата обращения: 24.01.2011).
 5. Mirzayeva, D. (2021). PROVERBS AND SAYINGS AS A PRODUCT OF THE NATION'S COGNITIVE THINKING. In *Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference* (Vol. 1, No. 2).
 6. Mirzaeva, D. (2021). THE ROLE OF PAREMIA IN THE SYSTEM OF NATIONAL CULTURAL HERITAGE. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(3).
 7. Ikromjonovna, M. D. (2021). LINGVO-COGNITIVE AND LINGUCULTUROLOGICAL ASPECTS OF PROVERBS AND MATALS IN DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 10(3), 46-53.
 8. Abbasova, N. K. (2020). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OLMOSHLARNING QIYOSIY TAHLILI. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 472-476).
 9. Sotvoldiyevna, U. D. (2022). Political Euphemisms in English and Uzbek Languages (A Comparative Analysis). *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 9, 92-96.
 10. Akramova, N. M., & Burkhanova, G. Y. (2020). The study and description of a youth sociolect. In *European research: innovation in sceance, education and technology* (pp. 69-71).
1. www.businessinsider.com

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC

PROGRESS "

2022 Warsaw, (Poland)

2. www.emarketer.com

3. DSQ telegram rasmiy kanali